

BOSHLANG‘ICH MAKTABDA O‘QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLARI

Andijon davlat pedagogika instituti
Oxunov Ixomjon Abdunabiyevich
Maxsus pedagogika kafedrasida dotsent (PhD)
oxunovilhom75@gmail.com
Pedagogika fakulteti boshlang‘ich ta’lim
yo‘nalish 3-bosqich talabasi
Baqbergenova Dilnura Maksudbek Qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19411543>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning psixologik va pedagogik omillari tahlil qilinadi. O‘quv motivatsiyasining mohiyati, uning kichik maktab yoshidagi bolalar rivojlanishidagi o‘rni hamda ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirishda o‘qituvchining pedagogik mahorati, ta’lim metodlari, ijobiy psixologik muhit va rag‘batlantirishdagi ro‘li ko‘rib chiqiladi. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida barqaror o‘quv motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuvlar bilan birga psixologik shart-sharoitlar asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Qobiliyat, o‘quv motivatsiyasi, kichik maktab yoshi, ta’lim, psixologik-pedagogik omillar, o‘qituvchi nutqi, oila, ota-ona tarbiyasi, xotira, metodlar.

Аннотация: В данной статье анализируются психолого-педагогические факторы формирования учебной мотивации у учащихся начальной школы. Подчеркивается сущность учебной мотивации, её роль в развитии детей младшего школьного возраста и её значение в образовательном процессе. Также рассматривается роль педагогических навыков учителя, методов обучения, позитивной психологической среды и поощрения в повышении интереса учащихся к обучению. В статье обосновываются эффективные педагогические подходы, способствующие формированию устойчивой учебной мотивации у учащихся начальной школы, а также психологические условия.

Ключевые слова: способности, мотивация к обучению, начальный школьный возраст, образование, психологические и педагогические факторы, речь учителя, семья, воспитание детей, память, методы.

Abstract: This article analyzes the psychological and pedagogical factors of the formation of learning motivation in primary school students. The essence of learning motivation, its role in the development of children of primary school age and its importance in the educational process are highlighted. The role of the teacher's pedagogical skills, teaching methods, positive psychological environment and encouragement in increasing students' interest in learning is also considered. The article substantiates effective pedagogical approaches that serve to form stable learning motivation in primary school students, as well as psychological conditions.

Key words: abilities, motivation for learning, primary school age, education, psychological and pedagogical factors, teacher’s speech, family, raising children, memory, methods.

Yoshlarni erkin fikrlaydigan, yangilikka intiluvchan va barkamol inson qilib tarbiyalash dastlab boshlang‘ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv motivatsiyasini shakllantirish masalasi

zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Boshlang’ich maktab yoshidagi bolalarda o’quv motivatsiyasi ko’p jihatdan psixologik va pedagogik sharoitlar ta’sirida shakllanadi. Bu jarayonda o’qituvchining pedagogik mahorati, ta’lim jarayonining mazmuni, o’quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, o’quv muhitining qulayligi hamda ijtimoiy omillari muhim ro’l o’ynaydi.

Boshlang’ich maktab o’quvchilarida o’quv motivatsiyasini hakllantirishning psixologik va pedagogik omillarini tahlil qilil ekanmiz datlab motivatsiya tushunchasining mazmuni va mohiyati haqida to’htalib o’tsak.

Motivatsiya - bu shaxsning ma’lum bir faoliyatni amalga oshirishga undovchi ichki va tashqi omillar majmui bo’lib, u insonning ehtiyojlari, qiziqishlari, maqsadlari hamda intilishlari bilan chambarchas bog’liqdir. Motivatsiyani rivojlantirishda o’quvchilarni rag’batlantirish, individual yondashish usullari bolani darsga qiziqishini kuchaytiradi. Bunda o’qituvchining shaxsiy ro’li ya’ni nutqi, adolatli bo’lishi, bolaga bo’lgan iliq munosabati motivatsiyaning muhim omilidir. Boshlang’ich sinf o’quvchilariga avvalambor darsni qiziqarli o’yinlar yordamida o’tish muvaffaqiyatli samara beradi, chunki bola hali dars nimaligini yozish o’qish qanaqa bo’lishini bilmaydi.

Motivatsiya odatda 2 turga bo’linadi: ichki motivatsiya va tashqi motivatsiya. Ichki motivatsiya o’quvchining bilim olish jarayonidan zavq olishi, yangi narsalarni bilishga qiziqishi bilan bog’liq bo’lsa, tashqi motivatsiya baho olish, rag’batlantirish, maqtov yoki jazo kabi tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladi.

O’quv motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillar orasida qobiliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Qobiliyat o’quvchining ma’lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga bo’lgan individual imkoniyatlarini ifodalash va u o’quv jarayonida faolligini, qiziqishini hamda mustaqillikni kuchaytiradi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev kichik maktab yosh davri juda muhim bo’lgan davrlardan biri ekanligi va bu davrda bolalarga sifatli va samarali ta’lim berish muhim ekanligini ta’kidlab shunday fikrlarni bildiradilar. “Boshlang’ich sinf o’quvchilarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash, ularga qiziqarli va samarali ta’lim berish uchun imkoniyat yaratish lozim” Jumladan O’zbekiston Respublikasinnng Ta’lim to’g’risidagi qonuning 9-moddasida Umumiy o’rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar 7 yoshga to’ladigan yilda qabul qilinadi. Boshlang’ich ta’lim oluvchilarda umumiy o’rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo’lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko’nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning o’quv faoliyatlari murakkab bo’lgan ko’p darajali motivlar tizimi bilan boshqariladi. O’quv faoliyati motivlari o’quvchilar nima uchun o’qiyotganliklarini ko’rsatib berishi lozim. Bola birinchi sinfga kelgan vaqtda ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu motivlar atrofdagilar orasida yangi mavqeni egallash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan hamda baholanadigan faoliyat bilan bog’liq bo’lgan motivlardir. Lekin birinchi sinfnig oxirlariga borib, ko’pchilik o’quvchilar o’z maktab majburiyatlariga mas’uliyatsizlik bilan qaray boshlaydilar. Bu bir qancha sabablar bilan bog’liq: bola endi o’quvchi bo’ldi, o’quvchi bo’lish istagi qondirildi. Bu maqomni ushlab turish uchun endi hech narsa qilmasam ham bo’laveradi, deb fikrlab qolishlari mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o’quv materialini o’zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko’zga ko’rinadi. Bular quyidagilar bilan bog’liqdir: 1) birinchi navbatda oila tarbiyasi; 2) oiladagi kamchiliklar, ota-ona munosabati; 3) neyrofiziologik sabablar; 4) bilish jarayonlarining yetarli darajada shakllanmasligi va boshqalar.

Respublikamizda ta’lim jarayonida, ayniqsa o’quv motivatsiyasini shakllantirishning psixologik-pedagogik omillarini o’rganish bo’yicha ko’plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Ularning ilmiy ishlari o’quvchilarning bilimga qiziqishini oshirish, ta’lim

samaradorligini kuchaytirish hamda shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi omillar orasida o‘quv faoliyatini motivatsiyalash muhim o‘rin egallaydi. Masalan, R.X.Djuraev, N.A.Muslimov, Sh.Shodmonov, B.R.Qodirov, E.G‘.G‘oziyev, V.Karimova. R.X. Djuraev O‘zbekiston pedagogika fanida muhim o‘rin tutgan olimlardan biri bo‘lib, u ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish hamda ta’lim samaradorligini oshirish masalalarini chuqur o‘rgangan. Uning tadqiqotlarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga qiziqishini oshirishda motivatsiyaning ro‘li alohida ta’kidlanadi. Olimning fikricha, ta’lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan yaratilgan pedagogik sharoitlar o‘quvchilarda

bilim olishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantiradi va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. N.A.Muslimov pedagogika fanida ta’lim jarayonining psixologik-pedagogik asoslarini tadqiq qilgan yetuk olimlardan biridir. U o‘z ilmiy ishlarida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va o‘quvchilar motivatsiyasini oshirish muammolariga alohida e’tibor qaratgan. Olimning tadqiqotlarida ta’lim jarayonida interfaol metodlar, muammoli ta’lim va mustaqil faoliyatni tashkil etish orqali o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish mumkinligi asoslab berilgan. Sh.Shodmonov pedagogika va ta’lim nazariyasi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy ishlarida ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, pedagogik muhit yaratish va o‘quv motivlarini shakllantirish masalalari keng yoritilgan. Olim ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlari motivatsiyaning muhim omillaridan biri ekanligini ta’kidlaydi.

B.R.Qodirov O‘zbekistonda pedagogik psixologiya yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlardan biridir. Uning ilmiy ishlari bolalar psixologiyasi, o‘quvchilarning bilish jarayonlari hamda motivatsiya muammolariga bag‘ishlangan. Olim o‘quvchilarda bilim olishga qiziqishning shakllanishida yosh xususiyatlari, psixologik muhit va tarbiya omillari muhim ro‘l o‘ynashini ilmiy asoslab bergan. Ushbu tadqiqotlarda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv motivlarini psixologik o‘yinlar yordamida shakllantirishga mahalliy sharoitda ilk bor kompleks yondashildi. O‘quv jarayonida foydalanilgan psixologik o‘yinlar o‘quvchilarning o‘qishga ijodiy yondashuviga, psixik taraqqiyotiga va psixik jarayonlariga ta’sir etishi mumkinligi ko‘rsatib berildi. Shu bilan birga baho olishga yo‘nalganlik motivlari tashqi motivlar sirasiga kirsa-da, ichki motivlarni muayyan darajada rivoj topishiga ko‘mak berishi ko‘rsatib berildi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich maktabda o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning psixologik-pedagogik omillarini chuqur o‘rganish va ta’lim jarayonida samarali qo‘llash o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirishda, ularning intellektual va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashda hamda ta’lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bois ta’lim jarayonida motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-avgustdagi Mustaqillik tantanalaridagi nutqi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ - 637- son.
3. Sherimbetova Z.Sh.Boshlang‘ich sinflardagi o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari.
4. G‘oziyev.E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlodi.
5. M. Davletshin. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU